O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
QURILISH VA UY-JOY KOMMUNAL
XO‘JALIGI VAZIRLIGI

"SHAHARSOZLIK
HUJJATLARINI EKSPERTIZA
QILISH RESPUBLIKA
MARKAZI" DMNING
ANDIJON VILOYATI
BOSHQARMASI

Andijon viloyati 170100, Andijon Shahri, A.Navoiy shox ko'chasi 30-uy., Tel/Faks: 71-203-11-49, E-mail: ekspert-2312@mail.ru., new-ekspertiza.mc.uz

Holati: Ijobiy

Boshqarma boshlig`i: Ashurov Behzodbek Orifjon O‘g‘li

2026 - yil 25 - maydagi 282625 - sonli

YIG'MA EKSPERT XULOSASI

Obyekt nomi: “5 qavatdan yuqori bo’lgan ko’p qavatli uylar” bino-inshootlari qurish.(G-11)
Buyurtmachi: GUMBAZ MILLIY TAOMLARI MCHJ
Bosh loyihachi: "ME`MOR ARCH CONCEPT" MAS'ULIYATI CHEKLANGAN JAMIYAT
Moliyalashtirish manbai: Buyurtmachining o'z mablag'lari hisobidan
Bosh pudratchi: “GUMBAZ MILLIY TAOMLARI” MChJ
Qurilish turi: Yangi qurilish
Murojaat raqami: 120142

1. Loyihalash uchun asos.

1.1. Elektron onlayn auksion natijalari to‘g‘risidagi 2024 yil 20 iyun kungi YU-1174897 sonli bayonnomasi.

1.2. Andijon viloyat Qurilish va uy-joy kommunal xo`jaligi Bosh boshqarmasi tomonidan 03.03.2026-yilda berilgan №1703-1703203-256505-sonli Arxitektura-rejalashtirish topshirig'i.

1.3. Buyurtmachi – “GUMBAZ MILLIY TAOMLARI” MChJ tomonidan 2026-yilda tasdiqlangan loyihalashtirish topshirig'i.

1.4. Buyurtmachi – “GUMBAZ MILLIY TAOMLARI” MChJ hamda bosh loyiha tashkiloti o`rtasidagi 2026-yil 4-aprelda tuzilgan №16/26-sonli loyiha-tadqiqot ishlari uchun shartnoma.

1.5. Andijon viloyati Qurilish va uy-joy kommunal xo`jaligi Bosh boshqarmasi Arxitektura va shaxarsozlik kengashi ishchi organining 08.04.2026-yilgi №278422632-sonli xulosasi.

2. Ekspertiza uchun taqdim etilgan materiallar.

2.1. Loyixaning tarkibiy qismlarining ro'yxatiga muvofiq ishchi loyiha bosqichida to'liq loyixa smeta xujjatlari.

2.2. Ruhsatnomalar va kelishuv xujjatlar jamlanmasi, umumiy tushuntirish kitob tarzida.

2.3. Muxandislik geologik qidiruv ishlari «O’ZGASHKLITI» MChJ tomonidan 2026-yilda bajarilgan 103907-sonli xulosa.

3. Loyiha yechimlarining qisqacha mazmuni.

3.1. Qurilish maydoni tafsilotlari:

Tashqi xavoning minus 16 C li qurilish tumani;
Qordan tushadigan yuk - 50 kg/mI;
Shamolning ta'sir kuchi - 38 kg/mI;
Yozgi xisobiy xavoning issiqlik xarorati + 33 C;
Maydon seysmikligi 9 – balli.

3.2. Bosh reja:

Loyihaviy turar joy binosi Andijon tuman Do’ng qishloq MFY hududida joylashgan. Loyihalashtirish uchun tanlangan yer maydoni quyidagicha chegaralangan: shimol tomondan — qo’shni hudud bilan, sharq tomondan — qo‘shni hudud bilan, janub tomondan — qo’shni hudud bilan, g’arb tomonlardan — qo‘shni hudud bilan chegaralangan. Bosh reja mavjud tarmoqlar va xudud past-tekisliklarini xisobga olgan xolda ishlangan. Turar joy binolari va mazkur turar joy atrofida bolalar maydonchasi, chiqindilar yashigi, avtoturargoh, YOXB yashigi va YOXB gidrantlari. Obodonlashtirish ishlari yuzasidan beton yo’lak, temirbeton lotok, asbest quvur, maysa o’stirish ishlari, kashtan, shrenk archasi va butasimon archa o’tqazish ishlari ko’zda tutilgan.

Hududning texnik-iqtisodiy ko’rsatkichlar:

Hududning umumiy maydoni –301.0 m2/100%;
Hududning umumiy qurilish maydoni – 298.20 m2/ 99.07 %;
Yo’l va yo’laklar maydoni (hududdan tashqari) – 1026.07 m2/0,93%;
Ko’kalamzorlashtirish maydoni (hududdan tashqari) – 212.30 m2/0,00%.

3.3. Yong’in xavfsizligi:

Loyiha hujjatlarida qabul qilingan yong‘in xavfsizligi tadbirlarining qisqacha tavsifi.

Mazkur loyiha bilan bosh rejaga ko’ra 1 ta blokdan iborat 5+1 qavatli turar joy binolari qurilishi rejalashtirilgan. Binolarning balandligi 5+1 qavatli blok +16,2 m (yer sathidan eng yuqori qavatning ochiladigan derazasi (eshigi)ning pastki chegarasigacha).

Ma’lumot uchun:

Binoning balandligi yuqori texnik qavatni hisobga olmagan holda yuqori qavatning joylashish balandligi bilan belgilanadi.

Qavatning joylashish balandligi yong‘in o‘chirish mashinalari uchun o‘tish yo‘li sathidan tashqi devordagi ochiladigan deraza (eshik) ning pastki chegarasigacha bo‘lgan masofa bilan belgilanadi (ShNQ 2.01.02-04, 5.13-b).

Turar joy binosi 1-qavati savdo va maishiy xizmat ko’rsatish shahobchalari va yashash kvartiralari joylashtirilgan. Yerto’la, 2-3-4-5-qavatlar terassa qavatlarida yashash kvartiralari joylashtirilgan. Tomga chiqish ichki umumiy zina katak orqali amalga oshiriladi.

Konstruksiyalarning chegaraviy holatiga ko‘ra, binoning olovbardoshlik darajasi – II; konstruktiv yong‘in xavfi bo‘yicha sinfi – S1; funksional yong‘in xavfi bo‘yicha sinfi – F 1.3.

Yong‘in xavfsizligini ta’minlash maqsadida quyidagi tadbirlar ko‘zda tutilgan:

Binoga yetib kelish va atrofida aylanma yo‘llar; evakuatsiya chiqishlarning soni norma talablariga mos; binoning tashqi (issiqlik izolyatsiyasi mineralvata) va ichki devorlari yonmaydigan materiallar bilan ishlov berilishi; yerto‘la qavatidan chiqish yo‘li bevosita tashqariga; yuqori qavatlarda har bir xonadonda tashqi ochiq balkon (lodjiya)lar; evakuatsiya yo‘llaridagi eshiklarning ochilishi chiqish yo‘nalishiga qaratilgan, liftlardan biri yong‘in-qutqaruv bo‘linmalarini tashish rejimida; har bir qavatlarda me’yoriy suv sarfiga

ega yong‘in o‘chirish kranlari joylashtirilgan ichki yong‘inga qarshi suv ta’minoti, quvurlari yuqori qismida halqalanishi; yerto‘la qavatda alohida xonada suv bosimini ko‘tarish maqsadida yong‘inga qarshi nasoslar, undan to‘g‘ridan to‘g‘ri tashqariga chiqish; yong‘in o‘chirish texnikasini ulash uchun binodan tashqari (fasad)da tashqaridan boshqariladigan zadvijkali va teskari klapanli D-80 mm quruq quvurlar; 1-2 qavatladan shamollatish tizimi; turar va noturar qavatlarda va qavatlardagi har bir xonada avtomatik yong‘in signalizatsiyasi; qavatlarda yong‘in vaqtida ovozli xabar berish tizimi; qavatlardan evakuatsiya chiqish joylarda “Chiqish” yozuvli yonuvchan elektron tablo; tashqi yong‘inni o‘chirish maqsadi uchun maydon ichidagi tarmoqda yong‘in gidranti; yerto‘la qavatda oyna xandaklar (okna priyamki); evakuatsiya yo‘llardagi eshiklar o‘zi yopiladigan moslama (dovodchik) bilan jihozlanishi; binodagi avtomatik yong‘in signalizatsiyasi signallarini qabul qilish-nazorat qurilmalarini markazlashgan holda kechayu kunduz navbatchi xodimlar bo‘ladigan xonaga o‘rnatilishi.

3.4. Me’moriy va konstruktiv yechimlari:

Loyihaviy besh qavatli 6-qavat terassali turar joy binolari – besh qavatli, yerto‘lali turar joy binosi to’g’ri to’rtburchak shaklida, devorli quyma temirbeton konstruksiyada, rejada o`qlari bo`yicha o`lchami 20,75 x 13,95 m. Yerto‘la xonalar balandligi – 2,74m, 1-2-3-4-5 -qavatlar va terassa qavat xonalar balandligi – 2,74mdan.

Binolarning yerto’la qavatida 5 dona bir xonali xonadonlar, elektr jixozlari xonasi, suv jixozlari xonasi, zina, xoll va yo’lak joylashgan. Binolarning 1-qavatida esa savdo va maishiy xizmat ko’rsatish xonalari, 5 dona bir xonali xonadonlar, 1 dona lift, zinapoya, xoll va yo’lak joylashgan. Binoning 2-5-qavatlari oralig’idagi har bir qavatda 6 donadan bir va ikki xonali xonadonlar, 1 dona lift, zinapoya, xoll va yo’lak joylashgan. Penthaus qavatida 6 dona jami 40 dona bir va ikki xonali xonadonlar 1 dona lift, zinapoya, xoll va yo’lak joylashgan.

Xonadonlarda xonalar sonidan kelib chiqib xoll, oshxona, yotoqxona, sanitar tugun va balkon joylashgan. Xonadonlar maydoni ShNQ 2.08.01-24 ning 4-bob 2-paragrafiga asosan ishlab chiqilgan.

Ichki pardoz ishlari – buyurtmachi tomonidan tasdiqlangan loyihalash topshirig`iga muvofiq zamonaviy qurilish materiallaridan foydalaniladi.

Pol – buyurtmachi tomonidan tasdiqlangan loyihalash topshirig`iga muvofiq zamonaviy qurilish materiallaridan foydalaniladi.

Eshik – buyurtmachi tomonidan tasdiqlangan loyihalash topshirig`iga muvofiq zamonaviy qurilish materiallaridan foydalaniladi.

Tashqi pardoz ishlari - buyurtmachi tomonidan tasdiqlangan loyihalash topshirig`iga muvofiq zamonaviy qurilish materiallaridan foydalaniladi.

Bino quyidagi konstruktiv elementlardan iborat: Poydevor tagiga beton qorishma - yaxlit quyma beton sinfi B7.5, h=100mm li. Poydevor - yahlit (сплошной) quyma temirbetondan, beton sinfi B22.5. Poydevor devorlari - quyma temirbetondan, beton sinfi B25, devorlar qalinligi 250 mm. Orayopmalar va tomyopma - quyma temirbetondan, beton sinfi B25, qalinligi 180 mm. Devor va pardadevor - 100mm, 200mm qalinlikdagi avtoklavniy gazablok devorlarning balandligi bo'ylab 600 mm, qadam bilan SG-2, to'rlar bilan, vertikal metall o'zak bilan mustahkamlangan. Pardadevorlar metal ustunlar va metal sarbasta bilan kuchaytiriladi. Tashqi devorlar (to’ldiruvchi) - gazoblokdan iborat va har 2 qatorda bo’ylamasiga gorizontal sim to’r(СГ) to'shaladi. Gazoblok (avtoklav) zichligi 600kg/

m3. Zinapoyalar - quyma temirbetondan, beton sinfi B25. Lift shaxtasi - quyma temirbetondan, beton sinfi B25. Tom - tekis tom (мягкая кровля). Tom yompasining issiqlik himoyasi - mineralvatadan 100 mm. Tomdan suv tushirish quvurlari - (ichki suv quvuri) ruxlangan po'latdan qilinadi, po'lat materiali qalinligi 0.51 mm. Quvurlar dumaloq shaklli, □ 100 mm bo'lib tik, vertikal to'g'ri chiziqli ko'rinishda bo'lishi kerak. Quvurlar yer ostidagi suv chiqarish quvuriga ulanadi. Otmostka - shag'al tushamali quyma beton quyiladi, kengligi 1,2 m.

Texnik-iqtisodiy ko'rsatkichlari:

Qurilish maydoni – 298.2 m2;
Umumiy maydoni – 2 168.23 m2;
Yashash maydoni – 762.94 m2;
Qurilish hajmi – 6 441.12 m3;
Xonadonlar soni – 40 dona.

Bundan tashqari ishchi loyixa-smeta hujjatlarida YOXB gidrantlari, hududni obodonlashtirish va nogironligi bo`lgan shaxslar uchun maxsus ishlarni bajarish ko'zda tutilgan.

Ishchi loyihada:

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 9-sentabrdagi PF-220-son Farmoni talablariga muvofiq amalga oshirilishi ko'zda tutilgan ish turlari.

- Issiq suv ta'minoti elektr suv isitgichlaridan hamda bino va inshootlarda qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish talablari ko'zda tutilgan, binoning tom qismida o'rnatilgan quyosh batareyasi kollektoridan qo'shimcha issiq suv ta`minlanishi ko'zda tutilgan;
- Energiya samaradorlikni ta'minlash bo'yicha chora-tadbirlarni nazarda tutilgan va obyekt energiya resurslarini zamonaviy "aqlli" o'lchash moslamalari bilan jihozlanishi bo'yicha talablar ko'zda tutilgan;
- Binoda qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish ya'ni, quyosh panellari o'rnatish ko'zda tutilgan;
- Binoda issiqlikni saqlash uchun binoning tashqi fasad qismiga 50 mm qalinlikdagi mineral vata(bazalt) qoplash ko`zda tutilgan;
- Tom yompasining issiqlik himoyasi – 100 mm qalinlikdagi mineral vatadan;
- Pol issiqlik qatlami – 50 mm qalinlikdagi penopleksdan (yerto'la va terrasa qismida).

Nogironligi bo'lgan shaxslar hamda keksalar uchun O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 18-iyuldagi PQ-266 sonli qarori talablari bo`yicha:

- nogironligi bo`lgan shaxslar uchun avtoturargoh re'jalashtirildi va maxsus belgilarni o`rn atish rejalashtirildi;
- hudud bo'ylab ogoxlantiruvchi va yo`naltiruvchi taktil qoplamalar qoplandi;
- binoning kirish qismida, birinchi qavatga ko'tarilish uchun, ko'tarish moslamasi rejalashtirildi;
- zinalarning ikki tomonida tutqich re'jalashtirildi;
- ko'zi ojizlar uchun ovozli ma'lumot beruvchi;
- devorga o'rnatilgan Brayl alifbosidagi axborot taxtasi;
- nogironlar aravachasini evakuatsiya qilish re'jasi;
- kirish eshigi oldida mnemonik diagramma;

- sirpanishga qarshi alyumin profil;
- bino birinchi qavati yo’laklarida ogoxlantiruvchi va yo`naltiruvchi taktil qoplamalar qoplandi;
- nogironlar uchun taktil piktogramma, kirish eshiklariga sariq rangda kontrast doira, kontrast lenta va boshqa qurilmalar;
- binoning yuqori qavatlariga ko’tarilish uchun lift re’jalashtirildi.

4. Loyihalanayotgan obyektning muhandislik ta'minoti.

4.1. Obyektni muhandislik kommunikatsiyalari bilan ta'minlash Andijon viloyat Qurilish va uy-joy kommunal xo`jaligi Bosh boshqarmasi tomonidan 03.03.2026-yilda berilgan №1703-1703203-256505-sonli Arxitektura-rejalashtirish topshirig'iga muvofiq hal qilinadi:

- Ichimlik suv ta’minoti “Andijon suv ta’minoti” AJ ning 15-04-2026y. kunidagi №193-sonli texnik shartiga muvofiq;
- Issiqlik ta’minoti “Andijon issiqlik ta’minoti” MCHJ ning 22-05-2026y. kunidagi №6-sonli texnik shartiga muvofiq;
- Elektr ta’minoti “Hududiy elektr tarmoqlari” AJ Andijon hududiy filialining 13.04.2026y. kunidagi №03203204390-sonli texnik shartiga muvofiq xal qilinadi.

Issiqlik tizimi va shamollatish tizimi:

Binolarning issiqlik ta’minoti markaziy qozonxonadan ta'minlanadi. Isitish tizimi ikki quvurli, issiqlik uzatilishiga qarab yotqizilgan, polipropilen va po‘lat quvurlar qabul qilingan. Isitish jihozi sifatida bimetall radiatorlar qo‘llanilgan. Shamollatish tabiiy va mexanik yo’l bilan bajariladi. Toza havo xonalarga deraza, eshiklar orqali amalga oshiriladi.

Ichimlik suvi va oqova suvi tizimi:

Ichimlik suvi, shaxar ichimlik suvi tarmogidan rejalashtirilgan. Issiq suv ta’minoti elektr suv isitgichlardan amalga oshiriladi. Polipropilen quvur qo‘llanilgan. Ichki oqova suv tarmog‘i o‘z oqimi bilan oquvchi, PVX plastmassa quvur bilan loyihalashtirilgan.

Tashqi elektr taminoti:

Elektr ta’minoti “Hududiy elektr tarmoqlari” AJ Andijon hududiy filialining 13.04.2026y. kunidagi №03203204390-sonli texnik shartiga muvofiq xal qilinadi, loyiha topshirig’i va buyurtmachining kafolat xatiga asosan loyihaning 2-bosqichida amalga oshiriladi.

Tarmoq kuchlanishi:

Elektr ta'minotining ishonchliligiga ko'ra, turar-joy binosi II toifali iste'molchilarga tegishli.
Tarmoq kuchlanishi 380/220 V;
Hisoblangan quvvat: Pp – 139,43 kVt;
Kirish va tarqatish shiti ВРУ1-23-55 УХЛ4 o'rnatiladi.
Elektr energiyasini hisobga olish kvartira panelida joylashgan elektron hisoblagich tomonidan ta'minlanadi (ЩК SHRV). Kvartira panelida УЗО tipidagi qurilmani o'rnatish loyihada nazarda tutilgan. LED yoritgichlar umumiy uy iste'molchilari uchun yorug'lik manbalari
sifatida qabul qilinadi.
Kvartiralarning barcha xonalarida qandillar, oshxona va koridorlarda LED yoritgichlar, hammomlarda - chang va namlikdan himoya qiluvchi LED yoritgichlar ShNQ 2.04.17-19 ga binoan o'rnatish ta'minlanadi. Kvartiralarning guruh tarmoqlari ВВГнг-LS kabellar bilan amalga oshiriladi. Kabellar plita bo'shliqlarida, devordagi suvoq qatlami ostida va PVX

quvurlar orqali amalga oshiriladi. Magistral tarmoq АВВГ kabeli bilan pol ostidan quvurlar orqali yotqiziladi.

Loyihada har bir xonadon uchun tugmachali elektr qo‘ng‘iroqlarni o‘rnatish ko‘zda tutilgan. Kalitlar (выключатель) va rozetkalar poldan 0,9 m balandlikda, konditsionerlar uchun o'rnatilayotgan rozetkalar poldan 1,8 m balandlikda o'rnatilishi rejalashtirilgan. Elektr qurilmalarining barcha metal tok o'tkazmaydigan qismlari yerlatiladi. Buning uchun tashqi va ichki yerlatish konturi inobatga olingan. Tarmoqlarning neytral simlari va qo'shimcha neytral simlar yerlatish o'tkazgichlari sifatida ishlatiladi. Elektr toki urishining oldini olish uchun asosiy chorasi sifatida, loyihada barcha elektr jihozlarini nolga tushirilishi ta'minlanadi.

Energiya tejamkorlik:

Binolar tom qismiga umumiy quvvati mos ravishda 10 kwt va 10 kwt bo’lgan quyosh panellari jamlanmalari o’rnatish ko’zda tutilgan.

5. Loyihani kelishilganligi to'g'risida hujjatlar.

5.1. Andijon viloyati Qurilish va uy-joy kommunal xo`jaligi Bosh boshqarmasi Arxitektura va shaxarsozlik kengashi ishchi organining 2026-yil 8-apreldagi №278422632-sonli xulosasi.

5.2. Davlat ekologik ekspertiza markazi Andijon viloyati filialining 2026-yil 8-apreldagi № 01-02/03-7673-sonli Davlat ekologik ekspertiza xulosasi.

6. Ekspertiza natijalari.

Ekspertiza natijalariga ko‘ra qo‘shimcha qiymat solig‘i (QQS) bilan **10 599 196 918** so'm miqdorida taqdim etilgan loyiha qiymati **1 667 802 477** so'mga kamaytirilib,

8 931 394 441 so‘mni tashkil etadi. Xususan:

Qurilish-montaj ishlari: **7 353 861 316** so'm

Asbob-uskunalar: **620 598 006** so'm

QQS: **956 935 119** so'm

6.1. Loyixa-smeta hujjatlari ekspertizaga buyurtmachining e’tirozlarisiz taqdim qilindi.

6.2. Ishchi loyixaga asosan qurilish montaj ishlarining yakuniy xarajatlari buyurtmachi va pudradchi tomonidan qurilish tugagandan so'ng, xaqiqiy (ijro xujjatlari) nazorat natijalari asosida aniqlanadi.

6.3. Ekspert mutahassislar tomonidan ko`rsatilgan bandlar buyurtmachi va loyiha tashkiloti tomonidan to`liq bajarilmagan taqdirda ushbu ekspertiza xulosasi o`z kuchini yo`qotgan deb xisoblanadi.

6.4. Ushbu ekspertiza xulosasida pudratchining boshqa harajatlari, obyektning hududda joylashgan o`rni va oraliq masofasi bo`yicha “Shaharsozlik hujjatlarini ekspertiza qilish Respublika markazi” DM Andijon viloyati hududiy boshqarmasi majburiyatni o’z zimmasiga olmaydi. Vaholanki, Andijon viloyati Qurilish va uy-joy kommunal xo`jaligi Bosh boshqarmasi Arxitektura va shaxarsozlik kengashi ishchi organining 2026-yil 8-apreldagi №278422632-sonli xulosasida obyektning hududda joylashgan o`rni va oraliq masofasi bo`yicha mutasaddi tashkilotlar bilan kelishilgan.

6.5. Buyurtmachi tomonidan tasdiqlangan loyihalashtirish topshirig’iga asosan tashqi muhandislik tarmoqlari (TET qismi) loyihaning keyingi bosqichlarida bajarilishi ko’zda tutilgan.

6.6. Buyurtmachi loyixaviy xujjatlarini tasdiqlashdan oldin belgilangan tartibda barcha manfaatdor vakolatli organlar, shu jumladan, O'zbekiston Nogironlar jamiyati Andijon viloyat bo'limi bilan kelishish lozim.

6.7. O'zbekiston Respublikasi Qurilish vazirligining 2019-yil 19-avgustdagi 396-buyrug'i (O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2019-yil 9-sentabrda ro'yxatdan o'tkazilgan, ro'yxat raqami 3180) bilan tasdiqlangan “Loyixa-tadqiqot ishlarining qiymatini aniqlash tartibi to'g'risidagi” Nizomning 4-bandiga asosan loyixa tashkiloti tomonidan qurilish ustidan mualliflik nazoratini o'tkazishda, loyixalarni ishlanma boshlanishidan amalga tadbiq etilishining oxirigacha olib boriladigan texnikaviy kuzatuvini amalga oshirishda ishtirok etadi.

6.8. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 17-sentabrdagi 579-sonli qarori 1-ilova, III-bob, 29-bandiga asosan ekspert tashkilotiga taqdim etilgan shaharsozlik hujjatlarining sifati, dastlabki ma'lumotlarning xaqqoniyligi va qabul qilingan loyiha yechimlariga buyurtmachi va loyiha tashkiloti javobgardir.

6.9. Nogironligi bo‘lgan shaxslar hamda keksalar uchun qurilish obyektlari O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 18.07.2024-yildagi PQ-266 sonli qarori bilan bir vaqtda ShNQ 2.01.02-04, ShNQ 2.04.09-21, ShNQ 2.07.01-23, ShNQ 2.08.01-24 hamda ShNQ 2.07.02-24 talablarini hisobga olgan holda, loyihalashtirish topshirig‘iga asosan talablarga to`liq amal qilinsin.

7. Xulosalar.

7.1. Ekspertiza natijalarini xisobga olib ishchi loyiha-smeta bo`yicha “Andijon tuman Do‘ng qishloq MFY hududida buyurtmachi “GUMBAZ MILLIY TAOMLARI” MCHJ tomonidan 5 qavatdan yuqori bo‘lgan ko‘p qavatli uylari bino-inshootlari qurish.” obyektini quyidagi texnik-iqtisodiy ko'rsatkichlariga ko'ra keyingi kelishuv va tender savdolarini o'tkazish uchun tavsiya etiladi:

Qurilish maydoni	- 298.2 m;
Umumiy maydon	- 2168.23 m;
Yashash maydoni	- 829.43 m;
Qurilish hajmi	- 6441.12 m;
Xonadonlar soni	- 40 dona;

7.2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2003-yil 11-iyundagi 261-sonli qarori va ShNQ 4.01.16-09 me'yorlariga muvofiq tanlov savdolarini o`tkazish uchun ob'ektning qiymati buyurtmachi tomondan belgilanadi. Tasdiqlash uchun tavsiya etilgan ta'mirlash va qurilish ishlari narxi boshlang`ich xisoblanib, asosiy qarorni buyurtmachi va bosh pudrat korhonasi tomonidan shartnomaviy munosabatlar orqali amalga oshiriladi.

7.3. ShNQ 1.03.06-13da “Davlat ekspertizasiga taqdim etiladigan shaxarsozlik xujjatlarining sifati uchun javobgarlik buyurtmachiga (dastlabki ma'lumotlarni loyixalashtirish jarayonida taqdim etilgan dastlabki ma'lumotlarning ishonchliligi bo`yicha) va ishlab chiquvchiga (qabul qilingan loyixa qarorlari bo'yicha) yuklatiladi”.

7.4. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 17-sentabr 2021-yildagi №579-sonli qarorining 5-bob, 36-bandida shaharsozlik xujjatlari bo’yicha ekspert tashkilotlar tomonidan berilgan ekspertiza xulosasining amal qilish muddati 2 yil etib belgilangan!

Ishtirokchi ekspertlar: Umarov Ravshan Maxamadjonovich, Nizomov Raximjon O‘ktam O‘g‘li, Madmarov Baxtiyor Baxodirovich, Axmedov Rustambek Xamidovich, Soliyev Joxongir

Bosh ekspert

ASQAROV OTABEK FAZLIDINOVICH